XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-sentabr VI-70-122-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 noyabrdagi PQ-241-sonli, Prezident Adminstratsiyasining 2023 yil 30 dekabrdagi 18-2842-sonli topshirig‘i hamda Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 2 fevraldagi 52-sonli qarorlarining ijrosi yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Taxtako‘pir tumanidagi og‘ir turmush sharoitidagi yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish va tom qismini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy hokimiyat to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 - moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

qaror qiladi:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Turdimuratov)ga tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan 145,0 (bir yuz qiriq besh) mln.so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish, byudjetga tegishli o‘zgartirish kiritish vazifasi topshirilsin.

2. Tuman hokimligi (J.Abdurashidov)ga tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov)ga mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli hisob raqamga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH